

LOTIN YOZUVIGA O‘TISHDAGI IJTIMOIIY MUAMMOLAR YUZASIDAN MULOHAZALAR

Aqmanova Shahnoza Alimboyevna
Urganch davlat universiyeti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

Mustaqilligimizga qo‘yilgan ilk qadam sifatida ona tilimiz – o‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi ekanligini bot-bot takrorlaymiz. Milliy iftixorimiz, g‘ururimiz, o‘zligimiz va o‘ziga bekligimizning yorqin ifodasi bo‘lgan davlat tilimiz o‘z maqomiga erishguniga qadar birmuncha tazyiq-u tahqirliklarga ro‘baro‘ kelgan. Endilikda bizdan talab qilinadigan ulkan mas’uliyat – bizga in’om qilingan davlat tilimizni yuksak darajada e‘zozlash, tilimizning qadr-qimmatini xalqimiz ongi-shuuriga singdirish, o‘zbek tilining jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilash va ravnaq topdirish, ushbu yo‘lda yagona maqsad sari birlashib harakat qilmog‘imizdir.

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”, - deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga bu yil 31 yil to‘ldi. O‘tgan davr mobaynida tilimiz rivoji yo‘lida birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘ngi yillarda bu ishlar yanada jadal tusga kirdi. Prezidentimiz tomonidan 21-oktabrning “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilinishi va Davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilgan farmoyishi zamirida ham tilimiz taraqqiyotiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilib, ishlar keng ko‘lamli yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa milliy bayramlarimiz qatorida o‘zbek tili bayramini nishonlash ham Respublikamizda istiqomat qiluvchi keksayu-yosh qalbida milliy tilimizga yanada hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Iftixorimiz ramziga aylanib ulgurgan o‘zbek tilini o‘z qonun-qoidalari asosida chiroyli qo‘llay olishning o‘zi tilimizga nisbatan yuksak ehtirom, aslida.

Xo'sh biz bu qonun-qoidalaridan unumli fodalanib kelyapmizmi? O'rinli va munozaralarga boy savol. Ushbu masalaning bir qismigagina to'xtalib o'tamiz. "Davlat tili haqidagi qonun"ning ikkinchi va undan keying tahrirlarida asosiy e'tibor lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishni ta'minlashga qaratilgan. Demak, qonun ijrosini ta'minlash uchun, avvalo, joriy grafik tizimga qat'iy rioya qilishni yo'lga qo'yishimiz lozim bo'ladi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi o'qitish, o'rganish tamoyillarini, usullarini tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda. Shu o'rinda insoniyatning o'tmishdagi ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy boyliklarini, jamiyatdagi ilg'or g'oyalarni avlodlarga yetkazib berishda muhim qurol yozuv ekanligini ta'kidlash joiz. Yozuv ijtimoiy taraqqiyot sur'atini tezlashtirishga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun taniqli tilshunos olim L.R. Zinder yozuvni "Inson tafakkurining buyuk kashfiyoti", - deb baholaydi. Bunday kashfiyotning strukturaviy-funksional jihatlarini maxsus o'rganish, uning tuzilishi, imlo qoidalaridan xabardor bo'lish kasb mahoratni ko'tarishda, bilimlarni yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek xalqining tili, yozuv madaniyati tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Tilning rivojlanishi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi. Yozuv biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlarini ifodalovchi belgilargina emas, balki eng qadimgi piktografik(rasm yozuvi) va ideografik (shartli belgilar) shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Istiqlol yillarida yozuv borasida bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va bir tutuq belgisi (apostrof) dan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba'zi harflar jahon aloqa aralashuv tizimiga kirishimizda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligi hisobga olinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga

binoan, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilandi. Yangi alifbo asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlanib, unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari o'z ifodasini topgan.

Oradan yillar o'tdi. Lotin yozuviga o'tish muddatlari bir-necha bor uzaytirildi. Bugun barchamizga ayonki, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish masalasi haligacha yechimini topgani yo'q.

Hozir bizda ikkiyozuvlilik, ya'ni ikki grafik tizimdan foydalanish kuzatilmoqda. Krill yozuvi lotin yozuviga o'z o'rnini bo'shatib bergisi yo'q. "... o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940 yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib...", deyiladi qonunda. Bugungi amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu tajriba biroz kamlik qilganday nazarimizda.

To'g'ri, qonunning 2-moddasida "Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy etish bilan birga O'zbekiston xalqining iftixori bo'lmish bebaho ma'naviy meros bitilgan arab alifbosini va krilitsani o'rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi", deyilgan. Lekin bu degani har kim xohlagan yozuvidan foydalanadi degani emas.

Lotin yozuviga to'liq o'ta olmayotganimizning o'ziga yarasha sabalari mavjud. Ularning eng asosiysi deb harflardagi noqulayliklar e'tirof qilinib kelinmoqda. Hozir biz ushbu harflardagi noqulayliklarga alohida to'xtalib o'tirmoqchi emasmiz. Chunki bu masala yuzasidan Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida maxsus kengash tuzilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini kompyuter klaviaturasiga maxsus joylashtirish masalasiga ko'proq e'tibor qaratib, amalda foydalanish uchun joriy etilsa, mavjud noqulayliklar bartaraf bo'lishiga shubha yo'q.

Endi masalaning ikkinchi tomoniga to'xtalsak. Hozirgi kunda bolalarga, maktab o'quvchilariga, talabalarga mo'ljallangan kitoblar, darslik va qo'llanmalar lotin alifbosida, keng omma uchun mo'ljallangan kitoblar esa krill alifbosida nashr qilinyapti. Chunki lotin alifbosi yetarlicha ommalashmagani, krill yozuvida o'qiydiganlar soni ko'pligi sabab krill yozuvidagi kitoblarga talab yuqori. Bozor shartlariga rioya qilib ishlaydigan nashriyotlar esa kitoblari xaridorgir bo'lishi uchun krill yozuvidagi kitoblarni nashr etishadi. Lotin yozuvidagi kitoblar ko'proq nashr qilinsa, keng jamoatchilikning ushbu yozuvni o'zlashtirish va qabul qilish jarayoni tezlashadi.

Bundan tashqari oldimizga aniq muddat qo'yish masalasini ham kun tartibidan tushirmaslik lozim. Ma'lum vaqt oralig'ida krill alifbosining qo'llanish doirasi cheklansa, bu doira muntazam toraytirib borilsa, jamiyatning har bir jabhasida lotin alifbosidan keng foydalanish yo'lga qo'yiladi. To'g'ri, bu jiddiy va murakkabroq masala. Lekin "...lotinlashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirgan qardosh millatlar tajribasi ma'lum muddatda yozuvni to'la isloh qilish samarali ekanligini ko'rsatib turibdi".

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, amaldagi yozuv (lotin yozuvi nazarda tutilmoqda) haqidagi qonun qabul qilingan davrda, asosan, davlat korxonasi va muassasalari mavjud edi. Shuning uchun ham unda davlat muassasalarida lotin yozuviga o'tish masalasi ilgari surilgan. Hozirda esa mamlakatimizda nodavlat muassasalar, xorijiy qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqdaki, ularda ham lotin yozuvidan foydalanish majburiyati mavjudligini anglashimizning o'ziyiq qonunga o'zgartirishlar kiritish lozimligini ko'rsatadi. Aslida esa, hali hanuz davlat korxonasi va tashkilotlarida ham, asosan, krill yozuvidan foydalanilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon faqatgina lotin yozuvini bilmaslik bilangina belgilanayotgani yo'q. Ma'lumki, taraqqiyot odimlari deyarli barcha ish yuritish hujjatlarini elektron shaklda tayyorlashni taqozo etmoqda. Lotin yozuvidan foydalanish ko'nikmalari to'la shakllangan, komyuter savodxonligi bo'yicha ozgina tahsilga ega bo'lgan kishi uchun bu jarayon murakkablik tug'dirmaydi. Ko'pgina tashkilot hujjatlari matnlarini kuzatish jarayonida yozuvning ruscha-krilcha turidan foydalanib

kelinayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa o‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarning butunlay xato yozilishiga sabab bo‘lmoqda. Birgina misol sifatida “huquq” so‘zini olib qaraydigan bo‘lsak, ruscha-kirilcha yozuvda bu so‘z “xykyk” tarzida yozilib kelinayotganligi achinarli hol, albatta. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ozgina e‘tibor va mas‘uliyat bilan bu kabi g‘alizliklarga, kerak bo‘lsa jiddiy muammolarga oydinlik kiritish, o‘zbek yozuviga asoslangan lotin yozuvidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi dolzarb masalalardan biri davlat tilini nafaqat mamlakatimiz doirasida, balki xalqaro darajada yanada rivojlantirish masalasidir. Bunda ham, albatta, yozuv va imlo, lotin alifbosini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilishi zarur. Chunki qaysiki davlatning tili o‘rganilmoqchi bo‘lganda, dastlab uning yozuvi, orfografiyasi o‘rganiladi. O‘zbek tilini chet ellik fuqarolarga intensiv o‘rgatish uchun ham, avvalo, Respublikamiz hududidagi barcha amaldagi yozuvlarni, ayniqsa, ko‘chalar, peshlavhalar, reklamalar, yorliqlar va hokazo yozuvlarni to‘liq lotin yozuviga o‘zgartirishni taqozo etadi. Chunki bu usulda til o‘rganuvchi bevosita shu davlat, uning aholisi, yashash tarzi, madaniyati, jamiyat taraqqiyoti kabi masalalarni ham o‘rganadi. Demak, o‘zbek tilining dunyoga bo‘y ko‘rsatishida eng birlamchi vosita bu uning yozuv tizimi ekanligini unutmasligimiz kerak.

O‘zbek tilining yozma nutqi me‘yor va qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish uchun ushbu masala bugungi davlat siyosating eng muhim jihati ekanligini anglash va bu yo‘lda hamma o‘z mas‘uliyatini to‘laqonli bajarishi lozim bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “O‘zbek tilining nufuzini oshirish to‘g‘risida”gi ma‘ruzasi. Toshkent: 2019-yil 21-oktabr.
2. Mirziyoyev Sh. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent: 2019-yil 21-oktabr.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida». (Toshkent sh. 1993-yil, 12-sentabr) «Toshkent oqshomi» gazetasi. 1993-yil, 12-oktabr.
4. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori: «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida», «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi» (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil, 24-avgustdagi 339-sonli qarori.)
5. Husanov N. O‘zbek tili va yozuvi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2004-yil.
6. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent.: “Universitet”, 2002-yil.
7. To‘raxo‘jayeva Sh. Huquq va burch. Toshkent: 2017-yil.
8. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. 3-nashr. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2011-yil.